

**ISTAXRIYNING “KITAB AL MASALIK VAL MASALIK” ASARI
TARIXIY KAROTGRAFIK MANBA SIFATIDA**

O‘zMU tarix fakulteti tarix yo‘nalishi

*3-kurs talabasi **Orzubek O‘ralov***

Tel: +998-99-500-75-68

e-mail: orzubekurolov06@gmail.com

Annotatsiya. Bu tezisda, musulmon tarixchisi va geografiyasi, shu jumladan mashhur arab sayohatchisi va geograflaridan biri bo‘lgan Istaxriy tomonidan yozilgan "Kitab al-Masalik va'l-Mamalik" (Yo‘llar va Mamlakatlar Kitobi) asarining tarixiy va kartografik manba sifatidagi ahamiyati o‘rganiladi. Asar, X-IX asrlar o‘rtalarida musulmon dunyosining geografik tavsifini, turli xalqlar, mamlakatlar va ularning o‘rtasidagi yo‘llarni tasvirlaydi. Bu kitob nafaqat o‘sha davr geografiyasi haqida ma’lumot beradi. Asar o‘zining kartografik tasvirlari, geografik tavsiflari, va yo‘l tarmoqlarini ko‘rsatish orqali o‘sha davrdagi xalqaro aloqalar, savdo va madaniy almashuvlar haqidagi bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tezisda, manbaning ilmiy va tarixiy qiymati jihatidan o‘ziga xos o‘rni va kartografik jihatdan qanday foydalanganligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy kartografiya, iqlim, musulmon geografiyasi, rayhoniy xati,

Istaxriy, Abu Ishoq al-Forisiy al-Istaxriy (taxminan 850—934) — geograf olim, Eronning Fors viloyatida yashagan¹. Istaxriyning tarixiy Persepol shahri atrofida tug‘ilgan. Buni uning taxallusi ko‘rsatib turadi. Istaxriy taxallusidagi Istaxr nomi o‘rta eroniy tildagi Persepol shahrining muqobili sanaladi. Bir vaqtlar Istaxr (manbalarda Estaxr) shahri Erondagi yirik imperiyalardan bo‘lmish, Sosoniylar imperiyasining markazi sanaladi² Eronzamin, Movarounnahr, Arabiston yarimoroli Misr, Ispaniya, Mag‘rib (Shim. Afrika) mamlakatlariga sayohat qilgan.

¹ Ўз М Э. «И» ҳарфи. Тошкент: Ўзбекистон - 2000. 365 б

² Bivar, A. D. H. (1998). "Eštāqr i. History and Archaeology". Encyclopaedia Iranica, Vol. VIII, Fasc. 6. pp. 643–646.



Istaxriy ning geografiya sohasidagi ilmiy merosi 930—933 yillarda arab tilida yozilgan "Kitob masolik va-l-mamolik" ("Yo'llar va mamlakatlar kitobi; boshqa nomi "Kitob al-aholim" — "Iqlimlar kitobi") asarida o'z aksini topgan. Mazkur asar Abu Zayd ibn Sahl Balxiyning "Suvar ul-aholim" asari asosida tuzilgan va X asr o'rtasida ommalashgan. Istaxriy asarida rub'i mas-kun (yer yuzining obod choragi) ning umumiy tavsifi va o'lkalar haqida geografik ma'lumotlar (chegaralari, shahar va qishloqlari, jome masjidlar soni, manzillar, nahr (kanal)lar, karvon yo'llari, xo'jaligi, elatlari va hokazo) berilgan³. Jumladan: Arab diyori, Mag'rib, Shom, Iroq, Xuziston, Fors, Kermon, Ozarbayjon, Huroson, Movarounnahr va b. qayd etilgan. O'lkalar tavsifiga ularning haritalari ham chizib ilova qilingan. Movarounnahr tavsifi va haritasida O'rta Osiyoning suvlari (Orol dengizi, Amudaryo, Sir-daryo, Zarafshon, kanallar), aholi mas-kanlari kabilar to'g'risida ma'lumot bor. Istaxriy ning ushbu asarini 976 yil Ibn Havqal tuzatib, to'ldirib yangi asar tuzdi va uni "Kitob al-masolik va-l-mamolik" deb atadi⁴. Mazkur asarning qiymati shundan iboratki, unda Istaxriy tomidan tashrif buyurilgan hududlar xaritasi ham ilova qilingan.

Asarning tarjima masalasida nafaqat arab tilidagi saqlanib qolgan qismlari, hamda fors tilida yetib kelgan parchalari orqali ham o'rganish mumkin. Manbaning asosiy qismlari sanalgan arab tilidagi nusxalaridagi matnlar rayhoniyl xat turi bilan yozilgan. Masalan, Movarounnahr tarixiga oid bo'lgan Qohiradagi nusxasining xat turidan rayhoniyl usulda ekanli. Ma'lumki, rayhoniyl xat turida harf shakllarining asoiyl qismi o'simlik bargalariga qiyoslab yoziladi. Ayrim hollarida harf usti nuqtalari va harakat belgilari yozilmaydi, yoki boshqa rang orqali ajratib qo'yiladi⁵. Qohira nusxasida ham aynan mana shu jihatni ko'rishimiz mumkin. Matn orasida nuqtalar kam ishlatilgan va harakat belgilarining deyarli qo'llanmasligi uni rayhoniyl xatiga o'xshashligini ko'rsatadi⁶. Asarning yozilish texnikasi turli matn

³ Ўз М Э. «И» ҳарфи. Тошкент: Ўзбекистон - 2000. 365 б

⁴ Ўз М Э. «И» ҳарфи. Тошкент: Ўзбекистон - 2000. 365 б

⁵ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 70 б

⁶ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 70 б



nusxalarida turlicha va joy nomlarining atalishi ham shunga monand turfa xildir. Bunday vaziyatlar tadqiqotchi uchun turli qiyinchiliklar keltirishi tabiiydir.

Istaxriy merosining yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, uning mazkur asrarida ko‘plab xaritalar ilova qilinganligidir. Xaritalar bizga X-XI asr musulmon kartografiyasi yutuqlarini ko‘rsatadi. Mazkur xaritalar asarda, “iqlimlar” qismlariga bo‘lingan holda ilova qilingan⁷. Musulmon geografiyasida antik davrdan meros bo‘lib kelayotgan dunyoni iqlimlarga bo‘lish nazariyasi X asrda keng yoyilgan. Buni biz ilk bor Muso al-Xorazmiyning, “Zij”ida ko‘rishimiz mumkin⁸. Olimning Ptolemey iqlimlarini 4 taga ya’ni 12 iqlimdan 8 iqlimga tushirganligi ham o‘z davri uchun yirik ilmiy kashfiyot bo‘lgan⁹. Istaxriy ham katta ehtimollarga ko‘ra, aynan 8 iqlimlik tizimdan foydalangan bo‘lishi mumkin. Nemis olimi K.Millarning “Mappae Arabicae” asarida Istaxriy tomonidan qoldirilgan xaritalarning umumiy sonini 275 deb ko‘rsatadi¹⁰

Asarning turli matnlari xaritalarning kelihi ham turlichadir. Masalan, Movarounnahr va Xurosonga oid xaritalar manba matnlarining, faqat F2 nusxasida uchramaydi¹¹. Qolgan nusxalarida esa Movarounnarh va Xuroson ko‘p hollarda uchraydi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, aynan F2 nusxada¹² hech qanday xaritalarni uchratmaymiz¹³. Xaritalar manbaning turli nusxalarida sochilib ketgan. Masalan, yirik xaritalar asarning gota nusxasi¹⁴da, shuningdek, Qohira, Bayrut va Qobul nusxalarida uchratishimiz mumkin¹⁵.

Yana bir e’tiborga molik qismi shundaki, manabada berilgan geografik hududlarning joylashuvi haqidagi ma’lumotlar va masofalar zamonaviy tarixiy

⁷ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 70 б

⁸ Holmuradov.R.va boshq. Birinchi renessans allomalari.Toshkent: Yangi asr avlodi – 2023 39 б

⁹ Уватов.У. Буюк юрт алломалари. Тошкент: Ўзбекистон – 2022. 36 б

¹⁰ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 70 б

¹¹ Nassar Mansour Yaqut al-Musta’simi, Analytical Study of the Technical Characteristics of his Method in Rayhani Script, (in Arabic), 2018, Jordan Journal of History and Archaeology

¹² F2 nusxasi – mazkur belgi manbaning olingan nusxa variant tili va matnning sonini ifodalaydi. Ya’ni “F” bu yerda fors tilidan olinganligini va “2” bu yerda mazkur manba matni topilgan ikkinchi qism ekanligini ko‘rsatadi. Manba: Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 10 б

¹³ Ўша асар.77 б (Қаранг Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 77 б 2-жадвал

¹⁴ Ўша асар.77 б (Қаранг Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 77-81 б 3-6-7-8-11-ра сдмдаги хариталар

¹⁵ Ўша асар.77 б (Қаранг Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайбергенов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 77-81 9-14-15-16- расмдаги хариталар)



geografik xaritalarni ishlashga katta yordam beradi. Asarning o'zbek tiliga tarjima qilingan "Movarounnahr va Xuroson" bo'limlarida har ikki mintaqadning geografik chegarasi va ushbu o'lkalardagi shaharlar va viloyatlarning joylashuvi va uning masofalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan¹⁶. Manbaning yana bir muhim jihati shundaki u Xuroson va Movarounnahr o'lkalarini tarixiy geografik jihatdan rayonlashtirgan. Rayonlashtirish davomida yirik chegara rayonlari sanalagan Toxaristonga Balx shahrini¹⁷, Vaxshob va Jaryob oralig'i sanalgan Xuttalonni yagona rayon deb e'tirof etishi bilan birgalikda mazkur ikki hududlarni ham Movarounnahr mintaqasi siftida kiritadi¹⁸. Bu kabi tadbirlarning qo'llanilishi esa manbaning tadqiqot olib boorish va davlatlarining tarixiy geografiyasini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Istaxriyning "*Kitab al-Masalik va'l-Mamalik*" asari tarixiy kartografiya va geografiya bo'yicha muhim manba sifatida o'rganilishi lozim. Asar o'zida nafaqat geografik tafsirlar va yo'l tarmoqlarini, balki o'sha davrning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini ham aks ettiradi. Ushbu kitob musulmon olamidagi yirik shaharlar va mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar, savdo yo'llari va iqtisodiy munosabatlar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. "*Kitab al-Masalik va'l-Mamalik*"ning kartografik xaritalari orqali biz o'sha davrda yashagan xalqlarning o'zaro munosabatlari, geografik tafsirlari va dunyoqarashlarini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Asar, shuningdek, tarixiy va geografik tafsilotlar yordamida turli mintaqalardagi madaniyatlarning rivojlanishi va o'zaro aloqalari haqida muhim dalillarni taqdim etadi. Tezisda, asar tarkibidagi geosiyosiy va ijtimoiy tafsirlar, uning kartografik tahlili orqali yangicha yondoshuv va ilmiy baho berilgan. Shu bilan birga, "*Kitab al-Masalik va'l-Mamalik*"ni tarixiy manba sifatida ishlatish, o'sha davrning tarixiy kartografiyasini va xalqlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega.

¹⁶ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайберганов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 89-116 б

¹⁷ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайберганов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 91 б

¹⁸ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Р.Т.Худайберганов таржимаси. Тошкент: Фан-2019 127 б